



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

**HUDUDIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA QAYTA ISHLASH SANOATINI
RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**УЛУЧШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНЫХ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛИ
ПЕРЕРАБОТКИ ОТХОДОВ В РАМКАХ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОЙ
ЭКОНОМИКИ**

**IMPROVING EFFECTIVE MECHANISMS FOR DEVELOPING THE RECYCLING
INDUSTRY IN THE DEVELOPMENT OF THE REGIONAL ECONOMY**

Rahimov Abdihakim Muxammadiyevich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti

Annotasiya

Mazkur maqolada muallif tomonidan hududiy rivojlanishning muhim yo‘nalishlarini taqdim etilgan. Hududlarda qayta ishlash sanoatini rivojlantirish orqali bir qator ijobiy iqtisodiy natijalarga erishish mumkin ekanligini ta’kidlab o‘tgan.

Kalit so‘zlar: sanoat, qayta ishlash sanoati, bandlilik, sanoat klasterlari, hududiy iqtisodiyot, hududiy rivojlanish, eksport salohiyati.

В данной статье автор представляет важные направления регионального развития. Он подчеркивает, что развитие перерабатывающей промышленности в регионах может привести к ряду положительных экономических результатов.

Ключевые слова: промышленность, перерабатывающая промышленность, занятость, промышленные кластеры, региональная экономика, региональное развитие, экспортный потенциал.

In this article, the author presents important areas of regional development. He emphasizes that a number of positive economic results can be achieved by developing the processing industry in the regions.

Keywords: industry, processing industry, employment, industrial clusters, regional economy, regional development, export potential.

Bugungi kunda qayta ishlash sanoati hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblandi. Respublika hududlarida ishlab chiqarish hajmini samaradorligini oshirish, mahalliy resurslardan oqilona foydalanish jarayonini keygaytirishda qayta ishlash sanoatining o‘rni alohida kasb etib bormoqda. Qayta ishlash orqali tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish hududiy iqtisodiy o‘rni ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bir qancha hududlarda mavjud xomashyo resurrlaridan oqilona foydalana olmagan va qayta ishlash darajasi pastligi sabab iqtisodiy samaradorlikka erishish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Qayta ishlash sanoati iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u mavjud xomashyo resurslarinin chuqur qayta ishlash orqali yuqori qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlaydi. Qayta ishlash sanoati faqatgina ishlab chiqarishni o‘rinishiga xizmat qilibgina qolmasdan, balki yangi ish o‘rinlarini yaratish, eksport salohiyatini oshirish hamda hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Tabiiy resurslarga boy hududlarda xomashyoni faqat dastlabki holatda sotish emas, balki uni chuqur qayta ishlash orqali tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish hududiy iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Respublikamizda 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib unga ko‘ra mazkur strategiyada hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, sanoatni modernizatsiya qilish, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash

va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1].

Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha jahonda va respublikamizda turli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Hususan Vitaliy M. Smolentsev va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarida qayta ishlab chiqarish sanoati bandlik darajasining oshishi, hududiy ishlab chiqarish tizimlarining raqobatbardoshligi kuchayishi, byudjet daromadlarining ko‘payishi va boshqa ijobiy natijalarda namoyon bo‘lishini ta’kidlab o‘tishgan [2].

Michael Porter ilmiy izlanishlarida hududlarda ilg‘or qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya hamda kelajak oziq-ovqat sanoati sohalarida yangi sanoat yo‘nalishlarini imkoniyatlarini tahlil qilgan. Muallif bunday rivojlanish startap va rivojlanayotgan korxonalr mahsulotlarida ilmiy biotexnologik bilimlarni qo‘llash, shuningdek, ushbu firmalarda muhandislik va marketing bilimlarini integratsiya qilish orqali yuzaga kelishi haqida e‘tirof etgan [3].

Qashqadaryo viloyatining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda sanoatning hududiy tarkibini takomillashtirish masalalarini U.Sh. Shukurov o‘z ilmiy izlanishlarida tahlil etgan. Muallif hudud iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va sanoatning tarmoqlararo oshirish orqali viloyatning iqtisodiy salohiyatini oshirish yo‘llarini yoritgan. Shuningdek tadqiqotda sanoatning hududiy tarkibini optimallashtirish orqali aholi bandligini taminlash, ijtimoiy-iqtisodiy muommolarni hal qilish va eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan [4,5].

Mazkur tadqiqotda muallif tomonidan hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlari o‘rganildi. Tadqiqotda tahlil va sintez, taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil, mantiqiy umumlashtirish va tizimli yondashuv usullari qo‘llanildi.

Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida qayta ishlash sanoati muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu tarmoq hududlarda mavjud xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hamda iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini jadallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan ishlab chiqarish tarmoqlarining diversifikatsiyasi, sanoat korxonalarining hududiy joylashuvi hamda mahalliy resurslardan samarali foydalanish darajasiga bog‘liqdir.

Iqtisodiy nazariya va amaliyot shuni ko‘rsatadiki, qayta ishlash sanoati rivojlangan hududlarda iqtisodiy faollik darajasi yuqori bo‘ladi. Bunday hududlarda ishlab chiqarish hajmi oshib boradi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi hamda aholi daromadlari ortadi. Ayniqsa, xomashyo resurslariga boy hududlarda qayta ishlash sanoatini rivojlantirish hududiy iqtisodiy samaradorlikni bir necha barobar oshirish imkonini beradi. Chunki xomashyoni qayta ishlash orqali yaratilgan mahsulot qiymati ko‘pincha bir necha barobar yuqori bo‘ladi.

Jahon tajribasida hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda sanoat klasterlari, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish muhim omillar sifatida qaralmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish orqali hududlarda iqtisodiy faollik oshadi va iqtisodiy tizim yanada barqarorlashadi. Masalan, sanoat klasterlari faoliyati ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish, hududlarda yangi sanoat korxonalarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini rivojlantirish hamda investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa hududlarda sanoat ishlab chiqarishi hajmining ortishiga hamda iqtisodiy faollikning kuchayishiga olib kelmoqda.

Hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hisoblanadi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha katta salohiyatga ega bo‘lgan davlatlardan biri hisoblanadi. Shu sababli ushbu mahsulotlarni chuqur qayta ishlash orqali oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va hududiy iqtisodiy salohiyatni oshirish mumkin. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini

qayta ishlash orqali yaratiladigan qo‘shimcha qiymat hududiy iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hududlarda qayta ishlash sanoatini rivojlantirish orqali bir qator ijobiy iqtisodiy natijalarga erishish mumkin. Birinchidan, hududiy iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyati oshadi. Ikkinchidan, sanoat korxonalarining faoliyati kengayishi natijasida yangi ish o‘rinlari yaratiladi va aholi bandligi ta‘minlanadi. Uchinchidan, qayta ishlangan mahsulotlarning eksport hajmi ortadi va hududlarning tashqi iqtisodiy aloqalari kengayadi. To‘rtinchidan, mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda qayta ishlash sanoatini rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, ishlab chiqarish texnologiyalarining eskirganligi, zamonaviy uskunalarning yetishmasligi, investitsiya resurslarining cheklanganligi, logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmagani hamda malakali mutaxassislarining yetishmasligi ushbu sohaning samarali rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, ayrim hududlarda ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida kooperatsiya aloqalari yetarli darajada rivojlanmaganligi ham iqtisodiy samaradorlikni pasaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Bunda birinchi navbatda hududlarda sanoat klasterlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Klaster tizimi ishlab chiqarish korxonalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va xizmat ko‘rsatish tashkilotlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytiradi hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ikkinchi muhim mexanizm investitsiya faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Qayta ishlash sanoatini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish hamda infratuzilmani rivojlantirish zarur. Bu esa investitsiya resurslarini jalb qilish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli hududlarda investitsiya muhitini yaxshilash, investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchisi muhim yo‘nalish innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar yordamida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin.

Shuningdek, hududiy iqtisodiy rivojlanishda transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Samarali logistika tizimi xomashyo yetkazib berish, tayyor mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga chiqarish jarayonini tezlashtiradi hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Shu sababli hududlarda transport infratuzilmasini rivojlantirish va logistika xizmatlarini takomillashtirish qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish hududiy iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu tarmoqni rivojlantirish orqali hududlarda iqtisodiy faollik oshadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi, eksport hajmi ortadi hamda aholi farovonligi yaxshilanadi. Shu sababli hududiy iqtisodiy siyosatda qayta ishlash sanoatini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishi zarur.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoati muhim strategik tarmoqlardan biri ekanligi aniqlandi. Mazkur tarmoq hududlarda mavjud tabiiy va xomashyo resurslaridan samarali foydalanish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hamda iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qayta ishlash sanoatini rivojlantirish orqali hududlarda ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, eksport hajmini ko‘paytirish hamda aholi farovonligini oshirish imkoniyati mavjud.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, qayta ishlash sanoati rivojlangan hududlarda iqtisodiy faollik darajasi yuqori bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonlari yanada samarali tashkil etiladi. Shuningdek, mazkur tarmoqning rivojlanishi hududiy iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuviga xizmat qiladi

hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda qayta ishlash sanoatini rivojlantirish jarayonida texnologik eskirish, investitsiya resurslarining yetarli emasligi, logistika infratuzilmasining rivojlanmaganligi hamda malakali mutaxassislarining yetishmasligi kabi muammolar mavjudligi aniqlandi.

Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish bo'cha quyidagi takliflar taqdim mumkin.

- Investitsiyalar muhitini yaxshilash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;
- Transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish, mahsulotlarni bozorlarga yetkazish berishni tezlashtirish;
- Hududlarda sanoat klasterlarini rivojlantirish orqali korxonlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish;
- Malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Qayta ishlash sanoatini rivojlantirish hududiy iqtisodiy faollikni oshirish, bandlikka ko'maklashish va eksport salohiyatini kengaytirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Smolentsev, V., Kuznetsov, A., & Zhuravlev, P. (2018). Industrial clusters development in the regional economic system. *Espacios*, 39(31). <https://www.revistaespacios.com/a18v39n31/18393105.html>
3. OECD (2021), *Entrepreneurship in Regional Innovation Clusters: Case Study of Chiang Mai and Chiang Rai, Thailand*, OECD Studies on SMEs and Entrepreneurship, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/2a24a552-en>.
4. Shukurov, U. (2023). Sanoatning hududiy rivojlanishi va barqaror iqtisodiy taraqqiyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. *International Journal of Social Sciences*. <https://worldlyjournals.com/index.php/IJS/article/view/13533>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27-oktabr 2020-yildagi “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-6096-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/>